FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
16 (35)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2026-yil
16 (35)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 15.09.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo‘ronov
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo‘minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Charos Yoqubova. "Zumrad va qimmat" ertagining adaptatsion transformatsiyasida an'ana va zamonaviylik 4
Elyor Mustafayev. Qiyosiy tahlil: ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik munosabatlari 7
Gulshod Shoyimova. "Otamdan qolgan dalalar" romanida dehqon obrazi: milliy ruhiyat va fojia tasviri 10
Nodira Sanoyeva. O'zbek bolalar hikoyalarida milliy odob me'yorlarini ifodalovchi lingvokulturemalar 12
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy ruboiylarining vazn va qofiya tizimi 14
Nargiza Ergasheva. Ingliz va o'zbek maqollarida stereotiplarning manipulyativ - pragmatik salohiyati 16
Gulnoza Egamberdiyeva. O'zbek va ingliz hikoyalarida ayol obrazining psixologik talqini 19
Mexri Norova. Common Aspects of White Color Symbol in Modern English and Uzbek Poetry 21
Muborak Qudratova. Hozirgi zamon o'zbek she`riyatida askar mahkam ijodi 23
Shoira Axmedova. Adabiy suhbatlarda shoir qiyofasi 25
Muxlisa Tursunova. Julian Barnsning "Floberning to'tiqushi" metaromanida intertekstuallik 27
Nizomiddin Rajabov. Dubletlarning til tizimidagi o'rni va xususiyatlari 29
Darmonjon Sadullayeva. Shermuhmmad Munis she'riyatida talmeh san'ati (Xizr obrazi talqinida) 31
Sharofiddin Raxmatullayev. Buxoro viloyati gidronimlari lingvokulturologiyasi 33
Гулчехра Махмадиева. Взаимосвязь художественного пейзажа и пафоса в узбекском рассказе 35
Саодат Мирзаева. Роль цитат и литературных реминисценций в произведениях В.В.Набокова 38
Индира Наркулова. Семантическая деградация как лингвистический феномен в условиях генеративного искусственного интеллекта 40
Умида Хабибуллаева. Эвфемизмы как средство этико-риторической организации речи 43
Фахриддин Абдурахманов. Русский язык в языковом пространстве современного узбекистана 47
Рано Батырова. Символика вещного мира в романе Наринэ Абгарян «С неба упали три яблока»: от бытовой детали к культурной памяти» 50
Малика Вахабова. Фразеологическая репрезентация концепта «мать» в корейском языке 52
Iroda Usmonova. "Xamsa"ning temuriylashuvi: ijodiy taqlid, madaniy o'zlashtirish va siyosiy-estetik qayta kodlash 55
Наргиза Заирова. Концепция «Identity» в литературоведении и её художественная **реализация в произведениях Н.**С.Момадзя И Т.Кайыпбергенова 57
Olimjon Jumaboev. Yetti ramzi: mifologik va zamonaviy hikoyachilik kodi 60
Sabohat Anvarova. O'zbek va ingliz paremiologiyasida er va xotin obrazlarining ifoda xususiyatlari (o'zbek va ingliz xalq maqollari misolida) 63
Humoyun Homidov. Qo'rquv motivining mif va afsonalardagi ildizlari 65
Shahnoza Majidova. Surxondaryo viloyati oykonimlarining konversiya usulida yasalishi 67
Gavkhar Usmonova. Kazuo ishiguro romanlarida xotira makonlari: retrospektiv narratsiya va identitetning badiiy qurilishi 69
Iroda Xaydarova. Nutq birliklari derivatsiyasida morfemalarning sintaktik xususiyatlari va strukturaviy munosabatlari 72
Asila Vahobova. "Ma'suma" romanida ayol ruhiyatining badiiy talqini 75
Gulira'no Rakhmanova, Sevara Jumanova. Functional Features of Metapragmatic Units in English and Uzbek 77
Dilnoza Turgunboeva. English Phraseological Units Expressing Quantity: Semantic and Linguocultural Features 79
Gulira'no Rakhmanova, Sevara Jumanova. Functional Features of Metapragmatic Units in English and Uzbek 82
Xaydar Xamdamov. O'zbek badiiy matnida "og'ir", "qattiq" va "chuqur" leksemalarining kollokatsion kengayishi va semantik prosodiyasi 84
Guljahon Tursunpo'latova. Alisher Navoiy "Xamsa"sida ona va ayol timsolining ma'naviy-estetik konsepsiyasi 86
Sohiba Arzikulova. Hamza dramaturgiyasidagi ayol obrazlar tahlili (Maysara va Jamila obrazlari qiyosi misolida) 89
Umida Kabulova. Superfrazali turg'un birliklarni elektron lug'atlarda kodlashtirish 91
Muhabbat Tolibova. Nazar Eshonqul nasrida lingvomadaniy birliklar va ramziy konseptlarning diskursiv tahlili 93
Rajabboy Mattiyev, Mirkamol Ismailov. Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" asaridagi ayrim umumeroniy o'zlashmalar haqida 95
Shaxnoza Nuriddinova. Tibbiy eponimlarda uchraydigan muammolar 97
Nigora Rasulova. "Nozik" mulamma'-muxammasi: janr, til va badiiyat tahlili 99
Nigora Qudratova. Shoira Shams ijodida lafziy san'atlar istifodasi 101
Husnida Tojiboyeva. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida sintaktik parallelizmning lingvopoetik xususiyatlari 104

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Akmal Yoqubov. Ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli transformatsiyaning o'rni 106
Laylo Mirzoxidova. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda 5E modelining ahamiyati 110
Ulug'bek Xo'jaqulov. Kolaborativ texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish 112
Diloram Fattakhova. Means of Speech Expression of the Uzbek Language and their Teaching in Russian Groups 114
Гулчехра Жабборова. Диалог с эпохой: методика анализа поэзии серебряного века в контексте языкового и духовно-нравственного развития школьников 117
Лола Туйлиева. Глаголы биологического состояния в текстах научного стиля: методика изучения русского языка как неродного 119
Райхон Аллаева. Моделирование как средство объяснения нового материала на уроках русского языка 121
Дилрабо Бабаева. Инновационные методы преподавания русского языка 124
Савлат Гафурова. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку студентов высших учебных заведений 126
Замира Вафаева. Современные исследования использования художественного текста в обучении русскому языку 128
Nodir Ahmedov. Sharq mutafakkirlari pedagogik merosida axloqiy tarbiya g'oyalari va ularning tarix ta'limida qo'llanishi 130
Sevar Akhmedova. Modern Problems of Learning English 133
Abror Yuldoshev. Chet tili ta'limida milliy-madaniy yondashuv asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish 135
Feruza Zulxaydarova. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishning umumdidaktik tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari 137
Muhayyo Shodmonova. A Decade of Research on the Development Ofcommunicative Competence in English Language Teaching: a Bibliometric Analysis 140
Lobar Fayzullayeva. Bo'lajak kadastr muhandislarining geoaxborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish: pedagogik shart-sharoitlar va ilg'or xorijiy tajriba tahlili 145
Ulug'bek Xo'jaqulov. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 147

Husnida TOJIBOYEVA,
mustaqil tadqiqotchi

PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDA SINTAKTIK PARALLELIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romanida sintaktik parallelizmning badiiy nutqdagi lingvopoetik vazifasi tahlil qilinadi. Sintaktik parallelizmning turli ko'rinishlari – takroriy, antitetik va uyushiq qurilmalar asosidagi parallelizm badiiy matn misolida ko'rib chiqiladi. Ushbu stilistik vositaning ritm, kontrast, ta'sirchanlik va obrazlilik yaratishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sintaktik parallelizm, lingvopoetika, badiiy nutq, stilistik vosita, kontrast, ritm, uslub, obrazlilik.

Annotation. This article analyzes the linguopoetic function of syntactic parallelism in artistic speech within the famous writer Pirimkul Kadirov's historical novel "Starry Nights". Different types of syntactic parallelism – repetitive, antithetic, and coordinate-construction based – are examined using examples from the literary text. The role of this stylistic device in creating rhythm, contrast, expressiveness, and imagery is revealed.

Keywords: syntactic parallelism, linguopoetics, Pirimkul Kadirov, "Starry Nights", artistic speech, stylistic device, contrast, rhythm, imagery.

Аннотация. В статье анализируется лингвопоэтическая функция синтаксического параллелизма в художественной речи исторического романа известного писателя Пиримкула Кадырова «Звездные ночи». На примере художественного текста рассматриваются различные виды синтаксического параллелизма – повторный, антитетический и основанный на однородных конструкциях. Раскрывается роль этого стилистического средства в создании ритма, контраста, выразительности и образности.

Ключевые слова: синтаксический параллелизм, лингвопоэтика, Пиримкул Кадыров, «Звездные ночи», художественная речь, стилистическое средство, контраст, ритм, образность.

Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yunoncha parallelos – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishidir [1: 59].

"Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va, eng muhimi, unga tinglovchini to'la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi" [2: 73].

Sintaktik parallelizm nutqda yoki badiiy matnda bir-biriga o'xshash sintaktik qurilmalarning ketma-ket qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan stilistik hodisadir. Ushbu vosita orqali muallif fikrni yanada aniq, izchil hamda ta'sirchan shaklda ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Mazkur hodisa tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, nutqqa o'ziga xos ritm va ohang bag'ishlaydi. Taniqli tilshunos R.Yakobson ta'kidlaganidek, parallelizm she'riy tilning eng chuqur va universal grammatik-badiiy tamoyili bo'lib, u nafaqat shakl, balki mazmun darajasida ham matnni tashkil etadi va o'quvchi ongida ikki birlik o'rtasida muqarrar qiyoslash uyg'otadi [3: 398]. Ayniqsa, badiiy matnlarda sintaktik parallelizm qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini bosqichma-bosqich ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan u nafaqat grammatik, balki stilistik va badiiy-estetik vazifani ham bajaradi.

Sintaktik parallelizm turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, ayrim hollarda gaplar tuzilishi to'liq bir xil shaklda takrorlanadi, ba'zan esa ular o'xshash bo'lsa-da, ayrim unsurlar bilan farqlanadi. Shuningdek, qarama-qarshi ma'nolar asosida qurilgan parallel tuzilmalar ham uchrab, ular matnda kontrast hosil qilishga xizmat qiladi. Sintaktik parallelizm nazariy jihatdan nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim stilistik vosita sifatida baholanadi. Endi ushbu hodisaning badiiy matndagi amaliy qo'llanishini ko'rib chiqamiz.

Ot in'om qildik – mindingiz. To'n in'om qildik – kiydingiz. Ulufa berdik – yo'q demadingiz. Endi ish buyursak, yo'q deysizmi?! [4: 418]

Ushbu parchada muallif fikrning ta'sir quvvatini oshirish uchun gaplarning grammatik jihatdan o'xshashligidan, ya'ni sintaktik parallelizm usulidan mahorat bilan foydalangan. Har bir segmentda avval berilgan ne'mat (ot, to'n, ulufa), so'ngra unga nisbatan harakat (mindingiz, kiydingiz, yo'q demadingiz) parallel ravishda takrorlanadi. Bu takror nutqda o'ziga xos ritm va musiqiylik hosil qilgan. Parallelizm bu yerda shunchaki bezak emas.

Yozuvchi yaxshiliklarni bittadan sanash orqali tinglovchining ongiga "minnatdorlik" hissini singdirib boradi. Har bir parallel gap mantiqiy bosqich bo'lib xizmat qiladi va yakuniy xulosa uchun poydevor yaratadi. Dastlabki uchta gapda shakllangan "rizolik" ohangi oxirgi so'roq gapning ("yo'q deysizmi?!") keskinligini oshiradi. Muallif parallelizm yordamida o'quvchini shunday mantiqiy nuqtaga olib keladiki, unda inkor variantiga joy qolmaydi. Yozuvchi qo'llagan ushbu parallel tuzilma fikrning izchilligini ta'minlash bilan birga, nutqqa o'ta kuchli ishontirish (psixologik ta'sir) xususiyatini bag'ishlagan.

"Yulduzli tunlar" romanida sintaktik parallelizmning turli ko'rinishlari uchrab, ular qahramon ruhiy holatini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi parchada ham ushbu hodisaning o'ziga xos namunasini kuzatish mumkin.

Dunyodagi eng mash'um baxillik, iste'dodlarning yo'lini to'sguvchi baxillikdir. Dunyodagi eng oliy saxovat esa nodir iste'dodlarni yuzaga chiqaruvchi saxovatdir. [4: 367]

Mazkur parchada sintaktik parallelizm o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lib, u antitetik (qarama-qarshi mazmunli) parallelizm asosida qurilgan. Gaplar bir xil sintaktik model – [aniqlovchi + aniqlanmish + kesim] qolipi asosida shakllangan bo'lib, strukturaviy uyg'unlik saqlangan. Biroq bu yerda parallelizmning asosiy kuchi faqat shakliy takrorda emas, balki mazmuniy qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi. "Eng mash'um baxillik" va "eng oliy saxovat" tushunchalari o'zaro zid qo'yilib, matnda kuchli semantik kontrast yuzaga keltirilgan. Shu orqali muallif ijtimoiy-axloqiy g'oyani ta'kidli tarzda ifodalashga erishgan.

Bundan tashqari, har ikki gapda "iste'dod" tushunchasi markaziy o'rinni egallab, birinchi gapda uning yo'li to'silishi, ikkinchisida esa yuzaga chiqarilishi tasvirlanadi. Bu esa parallel konstruktsiyalar orqali bir xil obyektga nisbatan ikki xil munosabatni ochib berishga xizmat qiladi. N.Mahmudov ta'kidlashicha, badiiy matndagi bunday sintaktik takrorlar nafaqat ritmik, balki psixologik ta'sir kuchini ham oshiradigan

uslubiy vositadir, chunki ular o‘quvchi tafakkurida ikki tushunchani bir-biriga qarshi qo‘yish orqali xulosaga yetaklaydi [5: 112]. Natijada sintaktik parallelizm bu parchada qarama-qarshi tushunchalarni keskinlashtirish, asosiy g‘oyani ta’kidlash va axloqiy baho berish kabi muhim stilistik funksiyalarni bajaradi.

Agar avvalgi misolda sintaktik parallelizm orqali harakatlarning ketma-ketligi va pragmatik ta’sir kuchaytirilgan bo‘lsa, mazkur parchada u qarama-qarshi tushunchalarni qiyoslash asosida qo‘llanib, muallifning axloqiy-estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Ko‘rib o‘tilgan misolda sintaktik parallelizmning ta’sirchanlikni oshirishdagi roli yaqqol namoyon bo‘ldi. Endi esa uning boshqa kontekstlarda qanday stilistik funksiyalarni bajarishini tahlil qilamiz.

To‘fang gumburlashi, yarador bo‘lganlarning dodlashi, otlarning pishqirishi va kishnashi orasidan kimlarningdir asabiy baqiriqlari eshitilardi [4: 494].

Mazkur parchada sintaktik parallelizm uyushiq bo‘laklar (sanash) orqali yuzaga kelgan parallel konstruktsiya shaklida namoyon bo‘ladi. Gapning birinchi qismida bir xil grammatik model asosida tuzilgan bir necha birliklar ketma-ket keltirilgan: to‘fang gumburlashi, yarador bo‘lganlarning dodlashi, otlarning pishqirishi va kishnashi. Ushbu birliklar otlashgan fe’llar (harakat nomlari) orqali ifodalangan bo‘lib, ularning parallel qo‘llanishi matnda kuchli ritmik va tasviriy uyg‘unlikni hosil qiladi.

Bu yerda parallelizmning asosiy vazifasi – voqealar fonini kengaytirish va tasvirni jonlantirishdir. Turli tovushlarning ketma-ket sanab o‘tilishi jang maydonining shovqinli, tartibsiz va keskin muhitini o‘quvchi tasavvurida jonli aks ettiradi. Natijada matnda akustik tasvir (eshitish orqali idrok etiladigan manzara) yuzaga keladi. Shuningdek, parallel sanashdan so‘ng kelgan “orasidan kimlarningdir asabiy baqiriqlari eshitilardi” qismi umumiy fon ichidan ajralib chiqayotgan muhim detalni ko‘rsatadi. Bu esa parallel konstruktsiya orqali yaratilgan umumiy shovqin fonida alohida bir tovushni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Mazkur misolda sintaktik parallelizm: tasviriylikni kuchaytirish, voqea muhitini kengaytirish, eshitish tasavvurini (akustik effektni) yaratish kabi muhim lingvopoetik funksiyalarni bajaradi. Ushbu parchada sintaktik parallelizm harakatlar ketma-ketligi yoki qarama-qarshilik asosida emas, balki uyushiq bo‘laklar orqali voqelikning tasviriy fonini yaratishga xizmat qilganligi bilan ajralib turadi.

Avvalgi misollarda sintaktik parallelizmning uch xil ko‘rinishi – harakatlar ketma-ketligiga asoslangan, antitetik va uyushiq bo‘laklarga asoslangan parallelizm – o‘z ifodasini topdi. Ularning har biri bir xil grammatik vosita orqali turlicha lingvopoetik natijaga xizmat qilishi tahlildan yaqqol ko‘rindi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sintaktik parallelizm badiiy nutqda ko‘p qirrali lingvopoetik vazifani bajaruvchi kuchli stilistik vositadir. U bir tomondan matnga ritmik va musiqiy uyg‘unlik bag‘ishlasa, ikkinchi tomondan fikrni izchil, ta’sirchan va ishontiruvchi tarzda yetkazish imkonini beradi.

Tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, sintaktik parallelizm turli vazifalarni bajarishi mumkin: harakatlar ketma-ketligini ta’kidlash va pragmatik ishontirish kuchini oshirish, qarama-qarshi tushunchalarni qiyoslash orqali axloqiy-estetik g‘oyani ifodalash, hamda uyushiq bo‘laklar orqali voqelikning tasviriy va akustik fonini yaratish. Demak, sintaktik parallelizm shunchaki grammatik takror emas, balki muallifning badiiy niyatini, qahramon ruhiy holatini va matnning umumiy estetik ta’sirini shakllantiruvchi faol lingvopoetik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Kelgusida bu hodisani boshqa badiiy asarlar misolida qiyosiy tahlil qilish, uning janr va uslubga ko‘ra o‘zgarish xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.
2. Shukurov R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari // O‘TA, 2004, №2.
3. Jakobson R. Grammar of Poetry and Poetry of Grammar // Selected Writings III: Poetry of Grammar and Grammar of Poetry. – The Hague: Mouton, 1981.
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar: roman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
5. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2015.